Ilmiy-intellektual forum davom etmoqda

// 27 May 2024 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ilmiy-intellektual-forum-davom-etmoqda



Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot haftaligi doirasidagi “Kimyo sanoati yosh mutaxassislari forumi” davom etmoqda.

Ishtirokchilarga forum, undan ko‘zlangan maqsadlar, forum davomida bo‘lib o‘tadigan tadbirlar haqida ma’lumotlar berilmoqda.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” Farmoni ijrosini ta’minlash, kimyo sanoati yosh mutaxassislarining malaka va tajribalarini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasida integratsiya jarayonlarini kuchaytirish maqsadida o‘tkazilayotgan ushbu milliy forumda kimyogarlarning bilim va malakalarini sinovdan o‘tkazish maqsadida turli ko‘rik-tanlovlar, sport musobaqalari, seminar-treninglar, rahbar va yoshlar uchrashuvlari hamda ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etilishi ko‘zda tutilgan.



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati